



BADIIY ASARLARDA O'QITUVCHI OBRAZI

Egamberdiyeva Dilnura Xurshid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21616170>

Annotatsiya: Ustoz-kamolot ko'zgusi. Bu shaxs biz uchun ham ta'lim, ham tarbiya beruvchidir. Ana shunday zahmatkash insonlar tasviri badiiy asarlarda ham keng yoritilgan. Ushbu maqolada pedagog yoki ustoz xatti-harakati, xarakter xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagog, ta'lim, tarbiya usullari, axloq, kamolot, dars, tarbiyasi og'ir o'quvchilar, kompozitsiya.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi, lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta'lim tizimini boshqaruvchi, lider yoki o'qituvchisiz tasavvur eta olmaymiz.

O'qituvchi, muallim – turli yo'nalishdagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis bo'lish bilan bir qatorda jamiyat hayotida oddiy inson sifatida tushuniladi.

Shukur Xolmirzayevning "Ustoz" hikoyasida ustoz va shogird o'rtasidagi nozik munosabatlar ochib berilgan. Hikoya 1987-yilda yozilgan. Davr biroz murakkab, mustaqillikka odimlayotgan, lekin hali erishilmagan holatda edi. Aynan shu holatni ustoz obrazidan bilsak bo'ladi. Tuman, viloyat xodimlarining qing'ir ishlarini biladi, lekin bu mavzuda yozuvchi sifatida tuzukroq felyeton ham, qissa ham yoza olmaydi. Uning bir shogirdi bo'lib, shogird ustozning teskarisi-hamma mavzuda qalam tebrata oladi. Ya'ni yozuvchi bu orqali ba'zi holatlarda ustoz va shogirdlar bir yo'nalishga qaramaydi, maqsadlari bir xil bo'lgan taqdirda ham fikr doirasi har xil, muammoga yechim topish yo'nalishi har xil bo'lishi mumkin demoqchi. Ammo ikkala inson ham kelishuvga asoslangan holda faoliyat olib borsa, fikr o'xshashliklari vujudga kelishi mumkin.

Ot egasi hikoyasida garchi mazmun boshqa bo'lsada, hikoyada ustoz motivi yetakchilik qiladi, Inod kichik maktabda bolalarga qo'lidan kelgancha bilim beradi. Yozuvchi hikoyani peyzaj usuli bilan boshlaydi: *Inodning uchta boyligi bor edi. Biri soy bo'yidagi serdaraxt qishlog'i; qishloq chetida bosmachilar bilan urushda halok bo'lgan otasining qabri do'ppayib turar, Inod goho uni ziyorat qilgani borardi. Ikkinchi boyligi qishloq o'rtasidagi tepada o'rnashgan ikki xonali maktabi edi; bu maktabga tog'ning olis-olis burchaklaridan otli, eshakli bo'lib o'quvchilar qatnar, hammasining yagona muallimi shu Inod edi. Uning uchinchi boyligi qorabayir oti edi; bu otning olis avlodi muallimning otasiga ham vaqtida xizmat qilgan, uni ko'p jangu jadallardan omon olib o'tgan edi.*

E'tibor berilsa, maktab u uchun xazina, o'z otasining qabri kabi muqaddas, eng yaqin sirrdoshi-Qorabayirdek ardoqli. Hikoya 1971-yilda yozilganini hisobga olsak, bu davrda

yurtning savodli bo'lishi ilm kishisi uchun muhim hodisa edi. Hikoyada muallimning qishloq bolalari yaxshi o'qishi, bu hayotda o'z o'rnini topishi uchun qilgan harakati, kuyunchak qiyofasi yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan: *"Inod bo'sh soatlarda va mehnat darslarida qorabayir otini maktab qoshidagi maydonga keltirib, o'quvchilarga arg'umoqda yurishni ham o'rgatadi, miltiq otishni ham ko'rsatadi, goho soy suvini band qilib, bolalari bilan baliq ham tutadi"*. [8-sinf adabiyot darsligi, 271-bet]

Mashhur adib Chingiz Aytmatovning Birinchi muallim asarida muallim timsoliga ma'rifatparvar, xalqchil qiyofa singdirilgan. Muallim Dyushenning jonkuyarligi evaziga ovul bolalari savodli bo'ladi, hatto bir o'quvchi akademik darajasigacha erishadi. Tahlilchilarning fikricha, shogirdning bunday darajaga erishishiga asosiy sabab ustoz maslahatini, yo'l- yo'rig'ini tinglagani deyiladi. Albatta, ustoz o'gitini chin dildan tinglash amal qilish har bir shogird uchun farzdir. Birinchi muallim qissasining yozilish tarixi haqidagi maqolada muallim Dyushenning shogirdi Oltinoy Sulaymonova ovuliga xat yozib, Dyushen haqida bir yaxshi asar yozilishi kerakligini aytadi. Yozuvchiga hech qanday narsani yashirmasdan aytish kerakligini ta'kidlaydi. Shundan so'ng yozuvchi asarni Oltinoy Sulaymonova tilidan hikoya qiladi.

Asarda Dyushen maktab ochib, xalqni savodli qilishga intiladi. Dyushen bilganlarini ayamasdan, sabr-toqat bilan bolalarga ta'lim bera boshlaydi. Har bir bolaning yoniga kelib, qalam ushlashni o'rgatib bo'lgandan keyin, ular eshitmagan gaplarni zo'r ishtiyoq bilan tushuntirib, qulog'iga quyib boradi. Eng qiziqarli tarafi, muallimning dars rejasi, metodikasi, hatto darsliklari ham yo'q bo'ladi. Mana shunday og'ir sharoitda ham bolalarni to'plab bilim berishga, intilishlarini qo'llab- quvvatlashga, maktabda ham o'qituvchi, ham qorovul bo'lishga, qishning sovuq kunlarida xona issiqligini ta'minlashga harakat qiladi.

Yuqoridagi ikki asar orqali xalqni savodli qilishga intilgan ikki inson bilan qisman tanishdik. Biri-o'zbek, ikkinchisi qirg'iz bo'lsa-da, maqsadi bitta edi, manzili bitta edi, tarbiya usullari bir-biriga yaqin edi. Bu esa asarlararo kompozitsion o'xshashlikni ta'minlagan. Yozuvchilarning asarlari mavzu jihatdan bir-biriga yaqin bo'lishi mumkin, lekin e'tibor qaratilayotgan narsaga munosabat turlicha bo'ladi. Ustoz obrazi qatnashgan har bir asarda u yoqlanishi kerak degan qoida ham yo'q. Ustoz obraziga asarda biroz salbiy bo'yoq yuklagan ana shunday hikoyalardan biri – Adabiyot muallimi hikoyasi.

Abdulla Qahhorning Adabiyot muallimi hikoyasida muallim personaji kulgi ostiga olinadi. Hikoyada uni nafis adabiyot muallimi deb ta'riflaydi. Negaki u o'zini adabiyot fanining dahosi deb biladi, dunyoda adabiyotdan tashqari fanda nafislik, madaniyat yo'q deb hisoblaydi. Ammo uning gaplaridan hech qanday nafislikni topib bo'lmaydi. Misol uchun, bu sigirni sotib, puliga cho'chqa olish kerak degan gapini olsak, avvalo, gapidan shoshma-shosharlik, axloqiy mafkuraning sustligi sezilib turibdi. Bundan tashqari adabiyot muallimi Boqijon Baqoyevda hayotini birdan yengil bo'lishini kutish, xayollarini ijtimoiylashtira olmaganini sezilib turibdi. Uyiga kelgan Hamidaning savollariga ham aniq bir substansiyaga ega javoblar bera olmaydi. "Uyqu istagi" hikoyasi yuzasidan aniq bir xulosa ayta olmaydi, zamonaviy badiiy tahlil mahorati deyarli bo'lmasa-da, o'zini eng buyuk tahlilshunosdek tutadi. Demak, Abdulla Qahhor birgina obrazi orqali butun millat ustozlariga murojaat qiladi, har bir pedagog o'z ishini mukammal ravishda bilishga intilishi kerak, asosiy maqsad o'qituvchilar orasida o'zib ketish emas, senga ko'zini tikib turgan yosh avlodga bilim berish bo'lishi kerak demoqchi bo'ladi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, bilimi kuchli bo'lishi o'qituvchini e'zoz va ardoqda bo'lishiga kamlik qiladi, uni amalda isbotlashi, beg'araz o'rgatishi, tarbiyaviy jihatdan ham

yuqori o'rinlarda turishi kerak. Ana shunda barcha shogirdlarida o'sish bo'ladi, mamlakatda ziyoli degan qatlamning nufuzi xalq orasida ham oshib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-ustoz-hikoya>
- 2.Adabiyot. 8-sinf darslik. S. Olimov. S.Ahmedov. R. Qo'chqorov. Toshkent, 2019.
- 3.Abdulla Qahhor. Anor. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2012.
- 4.www.ziyouz.com kutubxonasi. Chingiz Aytmatov. Birinchi muallim.